



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dotsent vazifasini bajaruvchi
Muqumova Dilafro'z
E-mail: dilafroz_muqumova@tues.uz

JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIYNING "MENDAGI BOYSUN" SHE'RI: LINGVISTIK TAHLIL

ANNOTATSIYA.

Zullisonayn shoir, tasavvufshunos va faylasuf olim Ja'far Muhammad Termiziy (Ja'far Xolmo'minov)ning fors-tojik va o'zbek tillaridagi ijodi zamonaviy o'zbek va fors-tojik adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. Uning she'riyatidagi badiiyat, janrlar va badiiy san'atlar, badiiy va irfoniy tafakkur uyg'unligi kabi masalalarga oid O'zbekiston Eron, Tojikiston va Misr adabiyotshunos olimlari tomonidan bir qator ilmiy risola va maqolalar nashr etilgan, ammo haligacha shoir she'rlari tilshunoslik nuqtai nazaridan jiddiy tarzda tahlil va tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada Ja'far Muhammad Termiziyning "Ko'zgu hayrati" she'riy to'plamidan joy olgan "Mendagi Boysun" nomli modern uslubda yozilgan erkin she'ri lingvistik jihatdan tahlil va tadqiq etiladi.

Tayanch so'zlar: Ja'far Muhammad Termiziy, "Mendagi Boysun", she'r, she'riyat, lingvistika, morfologik, sitaktik, leksiologik, stilistik, tahlil, tadqiq.

СТИХОТВОРЕНИЕ ДЖАФАРА МУХАММАДА ТЕРМИЗИ «БАЙСУН ВО МНЕ»: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

Творчество двуязычного поэта, учёного-суфиста и философа Джафара Мухаммада Термизи (Джафара Холмуминова) на персидско-таджикском и узбекском языках занимает особое место в современной узбекской и персидско-таджикской литературе.

Литературоведы Узбекистана, Ирана, Таджикистана и Египта опубликовали ряд научных работ и статей по таким вопросам, как художественность в его поэзии, жанры и художественные искусства, гармония художественного и мистического мышления, но до сих пор стихи поэта не были серьезно проанализированы и исследованы с лингвистической точки зрения.

В данной статье лингвистически анализируется и исследуется стихотворение Джафара Мухаммада Термизи «Байсун во мне» написанное в модернистическом стиле и включенное в его поэтический сборник «Изумление зеркала».

Ключевые слова: Джафар Мухаммад Термези, «Байсун во мне», поэзия, лингвистика, морфология, синтаксис, лексикология, стилистика, анализ, исследование.

JA'FAR MUHAMMAD TERMIZI'S POEM "BAYSUN IN ME": LINGUISTIC ANALYSIS

ABSTRACT

The works of the bilingual poet, Sufi scholar, and philosopher Ja'far Muhammad Termizi (Ja'far Kholmuminov) in the Persian-Tajik and Uzbek languages occupy a special place in modern Uzbek and Persian-Tajik literature. Despite the fact that literary scholars of Uzbekistan, Iran, Tajikistan, and Egypt have published a number of scientific works and articles on such issues as art, genres and artistic arts, the harmony of artistic and mystical thinking in his poetry, his poems have not been seriously analyzed and studied from a linguistic point of view. In this article, Ja'far Muhammad Termiziy's "Mendagi Boysun" ("Baysun in me") poem, written in a modernist style and included in his poetry collection "Ko'zgu hayrati" (Wonder of the Mirror), is analyzed and researched linguistically.

Keywords: Jafar Muhammad Termizi, "Baysun in me" poetry, linguistics, morphology, syntax, lexicology, stylistics, analysis, research.

KIRISH

Taniqli adabiyotshunos va tasavvufshunos olim, Ja'far Muhammad Termiziyning ustozil-filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin

Komilov shoirning "Ko'zgu hayrati" nomli she'riy to'plamiga yozgan so'zboshi-maqolasida aytib o'tganidek, haqiqatan ham "Ja'far o'ziga xos shoir, uning she'rlarini o'qisangiz, qadimiy g'azalchilik

an'alarini ham, hozirgi zamonda urf bo'lgan modern uslubi izlarini ham, inson va tabiat, ruh va koinot "qardoshligi"ga ishora etuvchi favqulodda nozik va hayratlanarli badiiy tasvirlarni ham ko'rasiz".[1] Uning har bir she'ri ma'lum bir vaqt va fazo oralig'ini tasvirlaydi, o'quvchining ko'z o'ngida hayratomuz manzaralarni gavdalantiradi, bunda badiiy san'atlar, badiiy vositalar o'z o'rnida qo'llaniladi. Eng muhimi, uning she'rlaridan badiiylik zamirida yashiringan mutlaqo yangi fikr, yangi ma'no va yangi bir falsafani topa olasiz. Bu holatni o'z vaqtida N.Komilov ham ilg'ab, shunday degan edi: "Masalan, "Nur shahriga safar" she'rini olaylik. She'rning umumiy mazmuni karaxtlik, ruhiy lanjlikdan qutilib, yorug'lik – hayot go'zalligini his etish va undan bahramand bo'lish hissining qo'zg'alishidir. Biroq ana shu tuyg'u nur va soya timsollari qiyosi orqali o'ziga xos bir ta'sirchan tarzu tarovat bilan sug'orilgan:

Endi men
Soyalar shahrini tark etgum.
So'ngra Nur shahriga yuzlanib
Quyoshning ilohiy shohkosasidan
Issiq nur ichgum.

She'r zamirida Yorug'likni to'sib qo'yuvchi, Yorug'likdan tahlikaga tushuvchi Soya devlari mazammam qilinadi, sovuqlik – hayotsizlik dahshati, sukut va jimjitlikning og'ir, ezuvchi murda gavdasiga nafrat yotadi. Qo'llangan tashbehlar ana shu hayotga zid kuchlar, qalbni, miyani kemiruvchi hasharot va jonzotlar tasvirida bo'rttiriladi va shu zaminda unga zid hayot quyoshining issiq nuridan harakatga kelgan issiq qon ko'pirishlari qalamga olinadi".[2]

Yuqoridagi fikrga ishonch hosil qilish uchun shoirning "Mendagi Boysun" she'rini lingvistik jihatdan tahlil qilishga kirishamiz. She'rning matni quyidagicha:

Yozgi hovli.
Asr namozi.
Buvam
Ixlos Qiblasiga yuzlanib
Muhabbatning yashil maysalari ustida
Namoz o'qirdi.
Buvim
Xotiralaridan
Abbos va Shokirga
Savat to'qirdi.
Otam
Otini boylovdan bo'shatib
Oyoqlari chigalini yozishga chiqardi
Yoz bo'yi konspekt yozishdan charchagan
Asabini jilovlab.
Onam
Onasidan

Meros qolgan iplarni to'zib
Boysuniy shevada
Do'ppi tikardi
Ketmonchopti, Devorkamar, Bobohuning
Shukuhini jilolab.
Ukam Jamshid
Qirdan kelayotib

"Nazariyning qizlari" qo'shig'ini kuylardi.

Men

Buvam qurgan qamish chaylada

Aruz bilan chillak o'ynardim:

"Mustafilun, fa'ulun, mustafilun fa'ul".

...Kimdir menga Alpomishning

Dostonini so'ylardi...[3]

Ja'far Muhammad Termiziyning har bir to'plami o'ziga xos bir badiiy kashfiyot sifatida adabiyot dunyosiga kirib keladi. Mashhur adabiyotshunos olim, akademik Shuhrat Sirojiddinov tili bilan aytganda, "shoirning "Qalbdagi quyosh" va "Kechikkan so'z" nomli turkum she'rlari hamda "Quyosh siyrati" nomli balladasi zamonaviy ruhda yaratilgan bo'lib, ularda Vatan ramzlari, tarixiy xotira, samimiy va pok muhabbat, tabiat tasviri, inson va hayot mohiyati, insoniy munosabatlar, odob-axloq mavzulari falsafiy mushohadalar orqali badiiy tarzda yoritib berilgan".[4] Shoirning "Ko'zgu hayrati" she'ri to'plamiga kirgan "Mendagi Boysun" she'ri ham ushbu to'plam "yukini ko'tarayotgan" she'rlardan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Morfologik tahlil. Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" nomli erkin she'r janrida yozilgan she'rining morfologik tuzilishida so'z turlari va ularning shakllaridan foydalanish muhim axamiyat kasb etadi. She'rda qo'llanilgan fe'llar asosan hikoya zamonida keltirilgan bo'lib, xotira tarzida ifodalangan voqyelikni akslantirishga xizmat qiladi. Masalan, "o'qirdi", "to'qirdi", "chiqardi", "jilovlab", "tikardi", "kuylardi", "o'ynardim", "so'ylardi" kabi fe'llar zamon va shaxs nuqtai nazaridan muvofiqlikda qo'llanilgan.

2.Sintaktik tahlil. Sintaktik jihatdan she'r erkin uslubda, ya'ni verlibr shaklida yozilgan. Bu shakl she'rning ifodalilik darajasini oshirish, fikr va hissiyotlarni erkin va to'g'ridan-to'g'ri ifodalash imkonini beradi. Satrlar orasidagi grammatik bog'lanishlar ba'zan parsellyasiya orqali, ba'zan sintaktik davomiylik orqali ta'minlangan. Masalan, "Buvam / Ixlos Qiblasiga yuzlanib / Muhabbatning yashil maysalari ustida / Namoz o'qirdi" satrlarida bir fikr bosqichma-bosqich kengaytiriladi.

3. Lekiskologik va frazeologik tahlil. She'rdagi

leksika xalq tiliga yaqin, oddiy, tabiiy va rustik xarakterga ega. Unda dialektizmlar, milliy realiyalar va metaforalar ko'p uchraydi. "Meros qolgan iplar", "Boysuniy sheva" kabi ifodalar, "Devorkamar", "Ketmonchopti", "Bobohu" kabi mahalliy tog'larning nomi leksik boylukning o'ziga xos namunalarini hisoblanadi. Bu so'zlar orqali muallif milliy-maxalliy koloritni juda yaxshi saqlab qolishga erishgan.

Frazeologik birliklardan "otini boylovdan bo'shatib", "asabini jilovlab", "iplarni to'zib" kabi ifodalar she'rning ifodalilik va ekspressivligini oshiradi. Ular bevosita so'z ma'nolaridan tashqaridagi ko'chma ma'nolar orqali muayyan holat va hissiyotlarni bayon etadi. Masalan, "asabini jilovlab" iborasi nafaqat psixologik holat, balki ichki intizom, madaniyatli sabrni bildiradi.

4. Uslubshunoslik (stilistik) tahlili. Ja'far Muhammad Termiziyning ushbu she'r uslubiy jihatdan bir necha qo'shma usullarni mujassamlashtirgan. She'rdagi asosiy uslub – avtobiografik lirika, ya'ni shaxsiy xotiralar, oilaviy muhit, bolalik davridagi hayot tasvirlari markazda turadi. Bu uslub orqali muallif o'quvchini ruhiy-madaniy muhitga olib kiradi.

Poetik tuzilishda anafora (qator boshida so'zlarni takrorlash) nazarga tashlanadi: "Buvam...", "Buvim...", "Onam...", "Ukam..." kabi takrorlar she'rning ichki ritmini ta'minlash bilan birga, shaxslar silsilasini tizimli va teran tarzda berishga xizmat qiladi. Bu uslub "dramatik xotira" ta'sirini yaratadi.

Tahlil va natijalar. She'rda sifat va otlar uyg'unligi orqali badiiy obraz yaratishga intilish ko'zga tashlanadi. Masalan, "yashil maysalar", "Ixlos qiblası" iboralari nafaqat tasviriylik, balki metafora sifatida ham xizmat qilmoqda. Otlar qatorida "buvam", "buvim", "otam", "onam", "ukam", "bobom" kabi qarindoshlik otlarning ishlatilishi she'rning avtobiografik xususiyatini ta'minlagan.

Metaforalardan "Muhabbatning yashil maysalari", "Ixlos Qiblası" singari birikmalar tasavvufiy va estetik obrazlar vositasida ifodalangan ma'naviy holatlarni ifoda etgan. Bu badiiy tilak ramziylik orqali ifoda etilgan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Ja'far Muhammad she'riyatining tiliga xos bo'lgan asosiy narsa – uning irfoniyligidir. Bu irfoniy tilda shoir ramzlar va majozlar tilida so'zlashadi. Haqiqatan ham, "yuzaki qaraganda shoir o'z fikrlarini oson, sodda va tushunarli tilda bayon qilganga o'xshaydi, ammo aslida bunday emas: shoir o'ta fashohatli va

balog'atli tilda so'zlashadi. Uning bayon uslubi boshqalarnikidan farq qiladi: kutilmagan poetik ma'nolar, kutilmagan obrazlar silsilasi, xayolga kelmagan badiiy san'atlar, jumladan, tashbeh, kinoya, istiora, talmeh, tashxis... uning bayon uslubining murakkab kompozitsiyalardan tarkib topganini ko'rsatadi. Eng muhimi, to'satdan kutilmagan fikrning portlab chiqishi o'quvchini hayratga soladi".[5]

She'rda milliy va ruhiy estetika, etnografik detallar, dialektal elementlar muallifning maqsad va g'oyalarini yanada yorqinroq ifoda etish uchun xizmat qiladi. Masalan, "Boysuniy shevada do'ppi tikardi" satrida nafaqat amaliy harakat, balki milliy an'analar va meros masalasiga ham ishora qilingan. Bu poetik misrada mahalliy shevaning estetik qadri baland qo'yilgan.

She'rda intertekstual ishoralar ham bor. Masalan, "Must'filun, fa'ulun, mustaf'ilun, fa'ul" misrasi orqali aruz vaznini esga olish milliy adabiy an'analarga bog'liqlikni bildiradi. Shuningdek, "Alpomish" dostoniga ishora qilish orqali folklor va epik poetika elementlari she'rdagi ichki dunyoga bog'lanadi.

Xulosa. "Mendagi Boysun" erkin she'ri tilshunoslik nuqtai nazaridan teran va ko'p qatlamli poetik matn sifatida e'tirof etilishi mumkin. Unda grammatik tuzilishning tabiiyligi, leksik tarkibdagi milliylik va metaforalashtirish, uslubdagi avtobiografik va etnografik elementlar uyg'un holda mujassamlashtirgan. Ja'far Muhammad Termiziy ana shu yo'l bilan nainki bolalik xotiralarini, balki milliy ruh va madaniy merosni poetiklashtirishga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Komilov N. Nur shahri madhiyasi. / Ja'far Muhammad. Ko'zgu hayrati. She'rlar. – Toshkent: "Tamaddun", 2010. – B.3.
2. Komilov N. Nur shahri madhiyasi. / Ja'far Muhammad. Ko'zgu hayrati. She'rlar. – Toshkent: "Tamaddun", 2010. – B.3-4.
3. Ja'far Muhammad. Ko'zgu hayrati. She'rlar. – Toshkent: "Tamaddun", 2010. – B.32.
4. Sirojiddinov Sh. Ishq suvrati va siyratining tasviri. / Ja'far Muhammad. Quyosh siyrati. She'rlar, g'azallar, qasidalar va tarjimalar. – Toshkent: "Yangi nashr", 2015. – B.4.
5. Muqumova D., Ja'far Muhammad Termiziy modern she'riyatida badiiy va falsafiy tafakkur uyg'unligi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences». Scientific Journal. 4 (9) Oct., 2024. VOLUME 4 №4 ISSN 2181-1784 Impact Factor 7.404.– B.335.